

IJTIMOIIY TARMOQLARNING INGLIZ TILINI O'RGANISHGA TA'SIRI

Samarqand davlat chet tillari universiteti talabasi

Normuminova Rayxona

Abdumo'minova Marjona

normuminovarayxona2007@gmail.com

abdumominova321@gmail.com

Ilmiy rahbar: Zaripova Aziza Shaxobiddinovna

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning ingliz tilini o'rganishdagi foydalari haqida aytib utilgan . SHu bilan bir qatorda uni rivojlantirish uchun turli metodikalar ko'rib chiqilib raqamli texnologiyalarining ingliz tili kabi xorijiy tillarni uzlashtirish jarayonidagi afzalliklari chuqur o'rganilgan. Bundan tashqari ta'lim jarayonida o'quvchilar duch kelishi mumkin bo'lgan onlayn platformalar bilab bog'liq muammolar tahlil qilingan va internetning bir necha salbiy taraflari haqida ham ogohlantirilgan.

Kalit so'zlar : Ijtimoi tarmoq, Ingliz tili, internet, raqamli texnologiyalar, onlayn ta'lim , imkoniyatlar, muammolar, metodikalar.

Hozirgi globallashtirish asrida insonlar yangi til o'rganishga harakat qilishyapti va ingliz tilini o'rganishga bo'lgan xohish xoh yoshlar orasida , xoh kattalar orasida bo'lsin oshib boryapti . Mamlakatimizda “Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ 1875 -sonli hamda “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ 5117 -sonli qarorlarining qabul qilinganligi hozirgi kunda ta 'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarini uzluksiz o'rganishni tashkil qilish , zamonaviy o'quv -uslubiy materiallar bilan ta' minlashni yanada takomillashtirish, zamonaviy pedagogik va axborot -kommunikatsiyateknologiyalaridan foydalanib , chet tillarini o'rgatish hamda o'rganilgan bilim , ko'nikmalarni mustaqil ravishda amalda qo'llashga o'rgatish chet tillari o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyat yukladi.Vaholanki ingliz tilini ustoz bilan o'rganishdan ko'ra ba'zilar o'zlari mustaqil o'rganishni afzal ko'radilar. Ingliz tili hozirgi kunda ommalashib boryotganligi tufayli ko'pchilik muloqot uchun o'rganishadi .

Insoniyat yaralibdiki, ko'rinishi , fikrlashi , xarakteri , o'zlashtirishi jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladi, xususan tilni o'zlashtirishi ham shular jumlasidandir. Shu sababli kimdir ingliz tilini “self-study” qilib o'rganishni afzal ko'rsa , boshqalar ustoz bilan onlayn yoki o'quv markazda ta' lim olishni afzal ko'radilar. “Texnologiya o'quvchilarga dunyoning istalgan nuqtasidan bilim olish

imkonini beradi.”¹ Instagram , You Tube , turli xil saytlar orqali o‘quvchilar o‘zlariga qulay usulda o‘zlashtirishi mumkin , chunki onlayn ta’lim vaqtni , pulni tejashga yordam beradi. Onlayn platformalar orqali ingliz tilini o‘rganish turli darajadagi o‘quvchilarga ingliz tilini yanada samarali va qisqa muddatda o‘rganishga yordam beradi². Zamonaviy ta’lim platformalari, masalan, Duolingo, Coursera yoki Khan Academy kabi platformalar ingliz tilini mustaqil o‘rganish imkonini beradi va o‘quvchilarga tilni amaliyotda ishlatish uchun ko‘plab resurslarni taqdim etadi. Yana bir muhim taklif esa, ingliz tilini kundalik hayotda kengroq qo‘llash va amaliyotga joriy etishdir. Talabalar va yoshlar ingliz tilidagi tadbirlarda ishtirok etishlari, xalqaro konferensiyalar, o‘quv dasturlari va internet resurslari orqali tilni amaliyotda o‘rganishlari kerak. Masalan, ingliz tilidagi film va seriallarni tomosha qilish, audio kitoblarni tinglash yoki chet elda ta’lim olish dasturlariga qatnashish tilni yaxshiroq o‘zlashtirishda katta yordam beradi.³

Bundan tashqari kommunikativ metod mavjud bo‘lib, o‘quvchilarning gapirish va tinglash qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Bu uchun free 4 talk.com ,speak pal kabi platformalar yordam beradi. Bu sayt va platformalar orqali o‘zlari xohlagan millat vakillari bilan ingliz tilida muloqot qilishlari va ingliz tilida gapirish va eshitish qobiliyatlarini oshirishlari mumkin.⁴

Ma’lumki hozirgi kunda yoshlar tilni qiziqarli yul bilan o‘rganishni xohlaydi chunki ular biror narsani qiziqarli uyinlar , metodlar orqali o‘rganishsa diqqatini jamlash osonroq bo‘ladi . Masalan ingliz tilida gapirish qobiliyatini oson va samarali yul bilan rivojlantirish maqsadida “ Shadowing” texnikasi taklif qilinadi . Bu texnikada o‘quvchi “Native speaker” larga taqlid qilib gapirishi kerak bo‘ladi va bu orqali talaffuz oshadi , va o‘quvchi ravon gapirishni o‘rganadi. “YouTube va boshqa media platformalar talaffuzni yaxshilashda an’anaviy darsliklarga qaraganda samaraliroq bo‘lishi mumkin.”⁵ Bundan tashqari yuqorida ta’kidlab utilgan usul nafaqat gapirish kunikasini rivojlantiradi balki u tinglab tushunish ya’ni “Listening” uchun ham foydali hisoblanadi. “Til o‘rganishning eng muhim qismi — bu mazmunli va tushunarli axborotni ko‘p eshitish hamda o‘qishdir.”⁶ Qushimcha qilib aytganda, onlayn platformalar yozish qobiliyatini rivojlantirishda ham juda qulay va foydali . Masalan o‘quvchi biror essey yozsa uni onlayn sun’iy intellekt orqali bepul tekshirishi mumkin va xatolarini aniqlab chuqur tahlil qilib beradi. Shu bilan birga doimiy ravishda you tube platformasi orqali inglizcha kino, multifilm, qiziqarli shoular, podcastlar eshitib tomosha qilish ham til o‘rganish jarayonini samarali va qiziqarli qiladi. Bundan

¹ Gates, Bill. *The Road Ahead*. New York: Penguin Books, 1995, 242-bet.

²https://journalss.org/index.php/tad/article/view/8996?utm_source=chatgpt.com

³https://inlibrary.uz/index.php/yosc/article/view/47014?utm_source=chatgpt.com

⁴https://journalss.org/index.php/tad/article/view/8996?utm_source=chatgpt.com

⁵ *International Journal of Emerging Technologies in Learning*, Vol. 15, No. 4, 2020, 103-bet.

⁶ Krashen, Stephen. *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. Oxford: Pergamon Press, 1982, 20–21-betlar.

tashqari, til o'rganuvchi yoshlar internet orqali "vocabulary" ga oid testlar yechib, har xil qiziqarli uyinlar orqali so'z boyligini ham oshirishi mumkin. Masalan, "Kahoot", "Quizlet" kabi platformalar orqali test tuzib "Vocabulary" ga oid bilimni boyitishi mumkin. Shu bilan birga "Duolingo", "Memrise", "WordUp" kabi uyinli ilovalar ham tavsiya etiladi.

Onlayn platformalarning ko'plab afzalliklari bo'lishi bilan bir qatorda chalg'ituvchi va o'quvchilar uchun muammoli bo'lgan jihatlari ham mavjud.

Ijtimoiy tarmoqlar asosan ko'ngilochar maqsadlar uchun yaratilganligi sababli, til o'rganish maqsadida qo'llanilganda ham o'quvchi ko'pincha erta chalg'ib qoladi. Tadqiqotlarda shuni ko'rsatadiki, talabalarning ba'zilar ijtimoiy tarmoqlardan til o'rganish uchun kamroq, faqat umumiy maqsadlarda foydalanadi. Amaliy misol: Talaba YouTube'da "ingliz tili videolar" deb kiradi, lekin tez orada o'yin videolariga yoki maqsadsiz ko'rish jarayoniga o'tadi —bu esa til o'rganish samarasini pasaytiradi.⁷

Xulosa

Umuman olganda, "Bugungi yoshlar bilimni ko'proq mobil qurilmalar va ijtimoiy platformalar orqali egallamoqda."⁸ ijtimoiy tarmoqlar ingliz tilini o'rganishda katta imkoniyatlar yaratadi. Ijtimoiy tarmoqlar ingliz tilini o'rganishda juda qulay va samarali vosita hisoblanadi. Ular orqali foydalanuvchilar real hayotiy til muhitiga yaqinlashadi, yangi so'z va iboralarni tezroq o'zlashtiradi hamda tinglab tushunish va yozish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Biroq, ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri va maqsadli foydalanish muhimdir. Faqatgina ko'ngilochar kontentga vaqt sarflash emas, balki ta'limiy sahifalar, ingliz tilidagi videolar, podcastlar va interaktiv mashqlarni tanlash kerak. Shunda ijtimoiy tarmoqlar til o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlar to'g'ri foydalanilganda ingliz tilini mustahkamlashda kuchli yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

⁷https://journalss.org/index.php/mod/article/view/4535?utm_source=chatgpt.com

⁸ UNESCO Global Education Monitoring Report. Paris, 2023, 87-bet.

REFERENCES

1. Gates, Bill. *The Road Ahead*. New York: Penguin Books, 1995, 242-bet.
2. https://journalss.org/index.php/tad/article/view/8996?utm_source=chatgpt.com
3. https://inlibrary.uz/index.php/yosc/article/view/47014?utm_source=chatgpt.com
4. https://journalss.org/index.php/tad/article/view/8996?utm_source=chatgpt.com
5. *International Journal of Emerging Technologies in Learning*, Vol. 15, No. 4, 2020, 103-bet.
6. Krashen, Stephen. *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. Oxford: Pergamon Press, 1982, 20–21-betlar.
7. https://journalss.org/index.php/mod/article/view/4535?utm_source=chatgpt.com
8. *UNESCO Global Education Monitoring Report*. Paris, 2023, 87-bet.